2026-yil
6-son

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
6-son

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir:
Shoumarov G'ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o'rinbosari:
Qodirov Umarali Do'stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A'zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A'zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo'lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To'xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o'g'li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To'xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
Yusupov Ahmadbek Tadjiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
G'ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
6-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
6-son

MUNDARIJA

Jurayev B. O‘spirinlar huquqiy dunyoqarashini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik determinantlarning o‘ziga xos xususiyatlari……. 8
Fayziyev Z.X. Mamlakatimizda psixologik xizmatni tashkil etishning ijtimoiy-psixologik asoslari..... 15
Karimov X. Sportchilarni bo‘lajak musobaqalarga tayyorlashning psixologik asoslari..... 22
Maxmudova O. O‘zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari asosidagi ijodiy rivojlanish yo‘nalishining mazmun-mohiyati……. 31
Parpiyeva N.T. Matematika o‘qitish metodikasi fanida kombinatorika elementlarini o‘qitishning noan’anaviy usullari……. 42
Maxmudova M.A., Tilovov I.Q. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetentligini raqamli ta’lim muhitida shakllantirish metodikasi…….. 49
Авазов К.Х. Национальная безопасность в Центральной Азии: системный анализ современных проблем……. 57
Mamatova G.A. Badiiy matn ona tilini produktiv o‘qitish vositasi sifatida……. 69
Asamatdinova J. Qaraqalpaqstan Respublikasi qánigelestirilgen mekteplerinde filologiya pánlerin oqitiwda pedagogikalíq qádiryatlardi qáliplestiriw..... 75
Батыралиева Ш.П. Современные подходы к развитию духовно-нравственной деятельности студентов…….. 81
Norbosheva M., Abduyeva N. O‘smirlik davrida stress va uni boshqarish usullari……. 88
Ishankulova G.B. O‘zbek oilalarida gender munosabatlar namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari..... 95
Ergasheva S., Jumanazarova M. Zamonaviy rahbar shaxsida boshqaruv komponentlarining psixologik tavsifi…… 104
Soatov A.J. Shaxsning o‘z bilim va ko‘nikmalarini baholashidagi nomuvofiqliklarning psixologik asoslari……. 112
Qosimova G.I. Ijodkorlik ko‘rsatkichlari va ularning bo‘lajak o‘zbek tili o‘qituvchisining lingvometodik tafakkuri shakllanganlik darajasini aniqlashdagi vazifalari……... 119
Kaytarov V.R. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki raqamli valyutasi (CBDC)ni joriy etish istiqbollari…… 128
Mingbayeva B.U. Boshlang‘ich ta’limda kitobxonlik va mutolaa madaniyatini yuksaltirish: zamonaviy tendensiyalar va rivojlantirish istiqbollari…….. 142
Urinova L.Sh. Interaktiv ta’lim jarayonida emotsional intellekning ahamiyati…… 150
Yuldasheva M.Y. Kichik guruhlar faoliyatini tashkil etish…….. 159
Gaffarov A.M. Maktab o‘qituvchilarining malaka oshirgandan keyingi faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning tashkiliy-pedagogik mexanizmi…… 166
Левкина М.Ф. Деятельностный подход к изучению темы «дроби» в начальном математическом образовании……. 178
Azimova N.N. Talabalarning o‘quv tashabbuskorligini rivojlantirishda milliy madaniy qadriyatlarning pedagogik imkoniyatlari……... 184
Akramov D.I. Development of internal and external speech in mentally retarded children with dysarthria……... 191
Jabborova M.T., Ziroyatova O.M. O‘zbek tilida ta’lim oluvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga rus tilini o‘rgatishda differensial va individual yondashuvlarning samaradorligi……. 199
Qaytarova N.K. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish metodikasini takomillashtirish yo‘llari…….. 206

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
6-son

Tashmuxamedova F.B. 6-7 yoshli bolalarning maktab ta'limiga nutqiy tayyorgarligida vizualizatsiyaning funksiyalari va tamoyillari……... 215
Abdunosirova Z.A. Conceptual metaphor as a cognitive mechanism of meaning construction in english advertising discourse…… 222
Jumayev D.X. Mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash: boshlang'ich sinflarda tanqidiy va mantiqiy fikrlashning o'rni…… 230
Rustamov R.A. Umumta'lim maktablari 9-sinf "tarbiya" darslarida jadid mutafakkirlari merosi asosida o'quvchilarning ijtimoiy kompetentligini shakllantirish metodikasi……. 239
Durmanova G.D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiyaning nazariy asoslari 250
Mamadaliyeva M.X. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish va takomillashtirishda modellashtirishning ahamiyati..... 259
Муқимова Д.Ш. Психологическое влияние двуязычия на развитие когнитивных процессов у студентов..... 267
Yunusova D.X. Xalq pedagogikasi an'analarining boshlang'ich ta'limdagi tarbiyaviy imkoniyatlari……. 275
Choriyev B.I. 3–4-sinf matematika darslarida sun'iy intellekt yordamida nostandart topshiriqlar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish…….. 283
Rajapova D.Sh. Polivinilxlorid asosida sintez qilingan sorbentlarning differensial termik tahlil xususiyatlari……. 290
Xushvaqtov O.A. Raqamli texnologiyalar asosida o'zbek tilini o'rganishda interaktiv ta'lim platformalarining ahamiyati…… 297
Suvonova A.I. Jinoyatchi shaxsining psixologik xususiyatlari va ularning shakllanish omillari…….. 306
Sobirova L.R. O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida hamkorlikda o'qitish: ta'siri, amaliyoti va muammolarining tizimli tahlili…….. 312
Nuriddinov B.B. Advancing global business management through digital innovations and cultural dynamics: prospects and challenges……. 319
Зеленская Е.Г. Социально-психологическая диагностика личности преподавателя как важнейший элемент рекрутинга профессорско-преподавательского состава……. 325
Saydaliyeva G.O. Zamonaviy turizm ta'limidagi ziddiyatlar va ularni bartaraf etishning ilmiy-pedagogik asoslari (psixologik aspekt)…… 333
Qalandarova Sh.O. Matematika ta'limi misolida o'quvchilarda PISA baholash tizimi mezonlari asosida raqamli madaniyatni shakllantirish istiqbollari…… 339
Pardayeva K.S. STEAM integratsiyasi asosida o'quvchilarning algoritmik madaniyatini rivojlantirishning metodologik asoslari……. 346
Karimqulova S.N. Ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarning o'smirlarning ota-onalar bilan muloqot jarayoniga psixologik ta'siri…… 353
Otabekova N.A. Talabalarda shaxsiy mas'uliyat, iroda va emotsional barqarorlikni rivojlantirish (o'zini nazorat qilish, stressga bardoshlilik)……. 361
Erkayeva K.J. Педагогические возможности выявления типичных ошибок учащихся на уроках русского языка с помощью средств искусственного интеллекта.. 368
Bahodirova M.T. Psixologik farovonlik fenomeni..... 375
Abduvahobov Sh.R. Arab nahvida sifat va o'zbek tilidagi sifat so'z turkumi: qiyosiy tahlil 381
Bozorboyeva M.J. Boshlang'ich sinflarda ingliz tili darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari……... 387
Ergashev Z.X. Komil Kaylaniyning "Ma'izning dushmani" ertagi tahlili va o'zbek tiliga tarjimasi……. 394

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
6-son

Abdurazzoqova S.A. Maktabgacha ta'lim jarayonida bolalar tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari……. 403
G'ayratov Sh.O. Said Ahmadninig "Sobiq'' hikoyasida satira va ijtimoiy tanqid masalasi 409
Omonov J.O. Yengil atletika mashg'ulotlari orqali jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish…….. 416
Sobirova A.M. Erkin kurash bilan shug'ullanuvchi bolalarning genetik moyilligiga ta'sir etuvchi omillar……..... 425
To'ychiyeva Z.A. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning zarurati……. 432
Xamidova D.R. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati…….. 439
Giyazova N.Sh. Enhancing the quality of higher education through student-centered digital learning approaches……... 447
Sharapova G. A. Integration of communicative approach, critical thinking, and digital technologies in teaching english: innovative solutions based on practical projects…….. 456
Qirgizova Kh. Kh. Effectiveness of various helicobacter pylori treatment regimens……. 462
Mallayeva O.B. Bo'lajak ichki ishlar organlari xodimlarida professional kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari…… 469
Axmedov S. Tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlarida noorganik kimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi……... 476
Mamadaliyeva Z.R. Tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlarida biokimyo fanini dasturiy vositalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish ……. 483
Turg'unov B.N. Iqtisodiyotni raqamlashtirish davrida moliyaviy nazorat xususidagi nazariy qarashlarning rivojlanishi……. 491
Berdiyeva M.T. The interpretation of onomastic units in english–uzbek and uzbek–english learner's dictionaries……. 498

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
6-son

UDK: 371.13:37.091.12

Gaffarov Azizjon Muxammadsaidovich,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti bo‘lim boshlig‘i, dotsent

MAKTAB O‘QITUVCHILARINING MALAKA OSHIRGANDAN KEYINGI FAOLIYATINI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK MEXANIZMI

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagog xodimlarni malaka oshirgandan keyingi faoliyatini pedagogik qo‘llab-quvvatlash muammosi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida joriy etilgan Kasbiy rivojlanish kuni (KRK) va Kasbiy rivojlanish soati (KRS) tadbirlari misolida tahlil qilinadi. Shuningdek, uch strategik yo‘nalish (tashkiliy, mazmuniy-metodik va monitoring) hamda besh bosqichli yopiq sikldan iborat integral tashkiliy-pedagogik mexanizm – PDCA siklining va Yaponiya Kaizen falsafasining mahalliy sharoitga moslashtirilgan birikmasi ishlab chiqilib, uning uchta asosiy afzalligi va amaliyotga joriy etishning besh sharti ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: malaka oshirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish, kursdan keyingi qo‘llab-quvvatlash, Kasbiy rivojlanish kuni, Kasbiy rivojlanish soati, integral mexanizm, besh bosqichli yopiq sikl, kontent zanjiri, refleksiv amaliyot, ko‘p darajali monitoring, pedagog sub’ektligi, dalillarga asoslangan boshqaruv.

ОРГАНИЗАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ПОДДЕРЖКИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНЫХ УЧИТЕЛЕЙ ПОСЛЕ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ

Аннотация. В данной статье анализируется проблема педагогической поддержки деятельности педагогических работников после повышения квалификации на примере мероприятий «День профессионального развития» и «Час профессионального развития», внедрённых в учреждениях общего среднего образования. Разработан интегральный организационно-педагогический механизм, включающий три стратегических направления (организационное, содержательно-методическое и мониторинговое) и пятиэтапный замкнутый цикл, основанный на адаптации цикла PDCA и японской философии Kaizen к местным условиям. Научно обоснованы три основных преимущества данного механизма, а также пять условий его эффективного внедрения в практику.

Ключевые слова: повышение квалификации, непрерывное профессиональное развитие, посткурсовая поддержка, День профессионального развития, Час профессионального развития, интегральный механизм, пятиэтапный замкнутый цикл, контентная

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

цепочка, рефлексивная практика, многоуровневый мониторинг, субъектность педагога, управление на основе доказательных данных.

ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL MECHANISM FOR SUPPORTING SCHOOL TEACHERS' ACTIVITIES AFTER PROFESSIONAL DEVELOPMENT TRAINING

Abstract. This article examines the problem of pedagogical support for teachers' post-training activities through the example of the Professional Development Day (PDD) and Professional Development Hour (PDH) initiatives implemented in general secondary education institutions. An integrated organizational and pedagogical mechanism consisting of three strategic dimensions (organizational, content-methodological, and monitoring) and a five-stage closed-loop cycle is proposed, combining the PDCA cycle and the Japanese Kaizen philosophy adapted to local educational conditions. The study scientifically substantiates three key advantages of the proposed mechanism and identifies five essential conditions for its effective implementation in educational practice.

Keywords: professional development, continuous professional development, post-training support, Professional Development Day, Professional Development Hour, integrated mechanism, five-stage closed-loop cycle, content chain, reflective practice, multi-level monitoring, teacher agency, evidence-based management.

Zamonaviy ta'lim siyosatining markaziy aksiomalaridan biri shundan iboratki, ta'lim sifatining hal qiluvchi omili – pedagog hisoblanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hamda xalqaro qiyosiy tadqiqotlar o'qituvchi salohiyatini o'quvchi natijalariga ta'sir etuvchi maktab ichidagi eng kuchli omil sifatida belgilaydi. Shu bois pedagogning bir martalik tayyorgarligi emas, balki butun mehnat faoliyati davomida uzluksiz kasbiy rivojlanishi (Continuous Professional Development – CPD) jahon miqyosida ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Uzoq yillar davomida pedagog malaka oshirishning yagona instrumenti sifatida an'anaviy 5 yillik kursli model xizmat qilib keldi. Biroq XXI asr boshidan boshlab ushbu modelning samaradorligi C.Day, T.R.Guskey, L.Darling-Hammond, A.Hargreaves va M.Fullan kabi olimlar tomonidan jiddiy tanqid qilinmoqda. Tanqidning asosiy yo'nalishi quyidagicha: kursda olingan bilimning kundalik ta'lim amaliyotiga o'tish darajasi T.R.Guskey hisob-kitoblariga ko'ra atigi 15–20 foizni tashkil etadi. Ya'ni an'anaviy model pedagog kasbiy

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

rivojlanishining asl maqsadi – kundalik dars sifatini yaxshilashga deyarli erisha olmaydi.

Mamlakatimizda mazkur jahon tendensiyasiga uyg‘un tarzda 2024-yil oktabrdan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida Kasbiy rivojlanish kuni (KRK) va Kasbiy rivojlanish soati (KRS) tadbirlari joriy etildi. KRK tayanch maktabda mentor-o‘qituvchi rahbarligida, KRS esa maktab darajasida yetakchi o‘qituvchi rahbarligida haftalik tarzda o‘tkaziladi. Bunda pedagog ish joyini tark etmaydi va kasbiy rivojlanish bevosita ish jarayonida amalga oshadi. Ushbu yondashuv pedagog malaka oshirishni mavhum, ish jarayonidan ajratilgan tadbirdan maktabga asoslangan, kollegial va uzluksiz jarayonga aylantirishni nazarda tutadi.

Shu bilan birga, har qanday yangi institutsional shaklning amaliyotga joriy etilishi muqarrar tarzda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. KRK va KRS tadbirlari amaliyotida bir qator jiddiy muammolar – ishtirokning majburiy xususiyati, mazmunning amaliyotga moslashmaganligi, refleksiyaning yuzakiligi va baholash mexanizmining yetishmasligi mavjudligini ko‘rsatdi. Ushbu muammolarning umumiy ildizi rasmiyatchilik (formalizm), ya’ni tadbirning shaklan o‘tkazilib, mazmunan pedagog rivojlanishiga olib kelmasligidir.

KRK va KRS tadbirlari ko‘pincha bir-biridan ajralgan, alohida tashkiliy birliklar sifatida qaralgan bo‘lsa, mazkur ishda ular yagona kontent zanjiri orqali bog‘langan, refleksiya, monitoring va kalibratsiyani uzluksiz siklga birlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida modellashtirilgan. Bunda mahalliy normativ-huquqiy baza xorijiy nazariy modellar (andragogika, o‘zboshqaruvli o‘rganish, refleksiv amaliyot, PDCA va Kaizen) bilan uzviy bog‘lanib, pedagogni kasbiy rivojlanishning passiv obyektidan faol sub’ektiga aylantiruvchi amaliy mexanizmga aylantirilgan.

Mazkur maqolaning maqsadi pedagog xodimlarni malaka oshirgandan keyingi faoliyatini pedagogik qo‘llab-quvvatlashning integral tashkiliy-pedagogik mexanizmini ishlab chiqish va asoslab berishdan iborat. Buning uchun:

1) an’anaviy va zamonaviy malaka oshirish modellari qiyosiy tahlil qilinadi;

2) aniqlovchi bosqich empirik tadqiqoti natijalari taqdim etiladi;

3) uch strategik yo‘nalish va besh bosqichli yopiq sikldan iborat integral mexanizm asoslanadi.

Pedagog uzluksiz kasbiy rivojlanishi muammosi xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan. L.Darling-Hammond va hammualliflari samarali kasbiy rivojlantirish dasturlarining yetti belgisini – mazmunga yo‘naltirilganlik, faol o‘rganish, hamkorlik, modellashtirish, ekspert ko‘magi (kouching), qayta aloqa va refleksiya hamda davomiylikni asoslab berishgan [1]. C.Day pedagog rivojlanishini umrbod o‘rganish konteksti sifatida talqin etib, kursga asoslangan epizodik yondashuvning cheklovlarini ko‘rsatib bergan [2]. T.R.Guskey esa pedagog o‘zgarishining haqiqiy mezoni – o‘quvchi natijalarining yaxshilanishi

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

ekanligini, bilimning amaliyotga o‘tish koeffitsiyenti pedagogik qo‘llab-quvvatlovsiz juda past bo‘lishini empirik tarzda isbotlagan [5].

A.Hargreaves va M.Fullan “kasbiy kapital” (professional capital) konsepsiyasini ilgari surib, pedagogning individual salohiyati (inson kapitali), hamkasblar bilan hamkorligi (ijtimoiy kapital) va kasbiy qaror qabul qilish layoqati (qarorlar kapitali) uyg‘unligini ta’lim sifatining hal qiluvchi omili sifatida ko‘rsatishgan [6]. Bu yondashuv kasbiy rivojlanishning individual emas, balki kollegial-jamoaviy tabiatini ta’kidlaydi va KRS tadbirlarining kollegial muhokama formati uchun nazariy asos beradi.

Pedagog mustaqil ta’limining sub’ekt-asosli tabiatini M.S.Knowlesning andragogik yondashuvi va D.R.Garrisonning o‘zboshqaruvli o‘rganish (self-directed learning) modeli asoslab beradi. Kattalar o‘z o‘rganishini o‘zlari rejalashtirgan, amalga oshirgan va baholaganda samaradorlik sezilarli darajada ortadi [9; 4]. Refleksiyaning kasbiy rivojlanishdagi o‘rni esa D.A.Schönning “refleksiv amaliyotchi” konsepsiyasida ochib berilgan: professional o‘z faoliyatini tahlil qilish orqali yashirin (tacit) bilimni anglab yetgan bilimga aylantiradi [13]. Aynan shu g‘oya KRS doirasidagi besh bosqichli refleksiv yozuv shabloniga asos qilib olingan.

Sharqiy Osiyo tajribasini o‘rgangan J.Stigler va J.Hibert hamda C.Lewis darsni hamkorlikda tahlil qilish (Lesson Study) metodikasining o‘qituvchi mahoratini oshirishdagi samaradorligini ilmiy asoslashgan [14; 11]. Ushbu metodika maqolada taklif etilayotgan “kontent zanjiri” g‘oyasining bevosita manbai hisoblanadi. Tizimni doimiy takomillashtirishning siklik mexanizmi esa W.E.Demingning PDCA (Plan-Do-Check-Act) sikli [3] va M.Imaining Kaizen falsafasiga [7] tayanadi. Nihoyat, kasbiy rivojlanish samaradorligini baholashda D.L.Kirkpatrickning to‘rt darajali modeli [8] va T.R.Guskey kengaytmasi metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Mahalliy darajada KRK va KRS tadbirlari normativ-huquqiy bazasi shakllantirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori [12] hamda vazirlikning 336-son buyrug‘i va uning ilovalari [15] bilan tartibga solingan. Biroq adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, KRK va KRS tadbirlarini yagona zanjirga bog‘lovchi, refleksiya, monitoring va kalibratsiyani uzluksiz siklga birlashtiruvchi yaxlit tashkiliy-pedagogik mexanizm hozircha yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Yuqorida keltirilgan manbalar tahlili pedagog kasbiy rivojlanishi samaradorligining uchta tayanch ustuniga ishora qiladi:

birinchidan, mazmunning pedagog real ehtiyojlariga va fan o‘ziga xosligiga moslashtirilishi;

ikkinchidan, o‘rganishning kollegial va refleksiv tabiati;

uchinchidan, tizimning siklik va dalillarga asoslangan tarzda doimiy takomillashtirilishi.

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

Bu uch ustun aynan integral mexanizmning uch yo‘nalishiga – mazmuniy-metodik, tashkiliy va monitoring yo‘nalishlariga mos keladi. Demak, mexanizm tasodifiy emas, balki nazariy jihatdan asoslangan tarzda qurilgan bo‘lib, jahon tajribasining mahalliy sharoitga ilmiy moslashtirilishini ifodalaydi.

Tadqiqot aralash (miqdoriy va sifat) metodologiyaga asoslandi. Aniqlovchi bosqichda 2024-yil sentabr–noyabr oylarida to‘rt hududda elektron so‘rovnoma o‘tkazildi: Toshkent shahar (170 nafar), Buxoro viloyati (162 nafar), Samarqand viloyati (164 nafar) va Farg‘ona viloyati (164 nafar), jami 660 nafar pedagog. To‘rt hudud respublikaning geografik xilma-xilligini aks ettiradi: Toshkent – poytaxt va eng rivojlangan hudud; Buxoro – g‘arbiy madaniyat markazi; Samarqand – markaziy-g‘arbiy hudud; Farg‘ona – eng zich aholi yashaydigan sharqiy vodiy.

So‘rovnoma 25 ta savoldan iborat bo‘lib, beshta blokni qamrab oldi: motivatsion (5), mazmuniy-metodik (5), tashkiliy (5), monitoring (5) va umumiy ko‘rsatkichlar (5). Anketaning ishonchliligi statistik usullar bilan tasdiqlandi: ichki muvofiqlik Cronbach alpha = 0,87 (0,7 chegaradan sezilarli yuqori); test-retest ishonchliligi r = 0,82 (2 hafta oraliq); mazmuniy validlikni pedagogika sohasining 8 nafar mutaxassisi (3 fan doktori va 5 fan nomzodi) ekspert tarzida tasdiqladi. Ushbu ko‘rsatkichlar natijalarning respublika miqyosida vakolatli xulosalar uchun yetarli ilmiy ishonchliligini ta’minladi.

Ma’lumotlar SPSS dasturida qayta ishlanib, tavsifiy statistika (foiz, o‘rtacha qiymat) va hududlararo qiyosiy tahlil usullari qo‘llanildi. Miqdoriy natijalar sifat tahlili (ochiq savollarga javoblar va ekspert kuzatuvlari) bilan to‘ldirilib, triangulyatsiya tamoyili ta’minlandi. Tadqiqotning ma’lum cheklovi sifatida so‘rovnomaning o‘z-o‘zini baholashga (self-report) asoslanganligini qayd etish lozim; shu bois miqdoriy ma’lumotlar ekspert tahlili va platforma analitikasi ma’lumotlari bilan solishtirilib, natijalarning ishonchliligi oshirildi.

An’anaviy va zamonaviy malaka oshirish modellarining qiyosiy tahlili.

Pedagog kasbiy rivojlanishini tashkil etishning an’anaviy va zamonaviy yondashuvlari o‘rtasidagi farqlarni aniq tushunish integral mexanizmni asoslash uchun zarur. An’anaviy modelda pedagog 5 yilda 1 marta 3-4 hafta davomida kursga jalb qilinadi, o‘z o‘quvchilarini boshqa hamkasbga topshiradi va mavhum nazariy materialga sho‘ng‘iydi. Zamonaviy CPD modelida esa rivojlanish maktabga asoslangan, kollegial va uzluksiz tarzda, ish jarayonidan ajralmagan holda kechadi. Ikki model o‘rtasidagi yetakchi farqlar 1-jadvalda o‘nta mezon bo‘yicha qiyoslangan.

1-jadval

Pedagog malaka oshirishning an’anaviy va zamonaviy modellari qiyosiy tahlili

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

№	Mezon	An'anaviy model (5 yillik kursli)	Zamonaviy model (KRK va KRS asosida)
1	Davriylik	Har 5 yilda 1 marta	Haftalik (KRK, KRS – haftalik 3 soat)
2	O'tkazish joyi	Hududiy PMM, A.Avloniy nomidagi PMMI	Tayanch maktab (KRK), o'rta ta'lim muassasasi (KRS)
3	Pedagog roli	Passiv tinglovchi	Faol sub'ekt, kollegial ishtirokchi
4	Mazmun manbasi	Tashqi mutaxassis dasturi	Pedagog ehtiyojlari + fan-spetsifik moslashtirish
5	Yillik soat hajmi	100-144 soat (3-4 hafta)	72 soat
6	Ish jarayonidan ajratilish	3-4 hafta to'liq ajratiladi	Ajratilmaydi, ish joyida
7	Refleksiya	Yo'q yoki rasmiy	Tizimli (5 bosqichli refleksiv yozuv)
8	Monitoring	Yakuniy test (1 marta)	Ko'p darajali (mikro, mezo, makro), uzluksiz
9	Bilim amaliyotga o'tishi	15–20%	60–70% (xorijiy tajriba)
10	Raqamli infratuzilma	Cheklangan	krk.avloniy.uz to'liq integratsiyalangan

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, ikki model o'rtasida o'nta yetakchi mezon bo'yicha tubdan farqlar mavjud. Eng muhim farq – bilim amaliyotga o'tish ko'rsatkichida (15–20 foizdan 60–70 foizgacha) pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyatini empirik tarzda tasdiqlaydi. Aynan shu ko'rsatkichdagi uch-to'rt baravar farq tadqiqotning markaziy gipotezasini – kursdan keyingi tizimli qo'llab-quvvatlash pedagog rivojlanishining hal qiluvchi sharti ekanligini – qo'llab-quvvatlaydi.

Shu bilan birga, qiyosiy tahlil zamonaviy modelning afzalliklari avtomatik ravishda amalga oshmasligini ko'rsatadi. Model samaradorligi bevosita tashkiliy shart-sharoitlarga – mentor-o'qituvchining tayyorgarligiga, vaqt rejimining qulayligiga, raqamli platformaning funksionalligiga va refleksiv amaliyotning chinakam mazmunliligiga – bog'liq. Aks holda haftalik tadbir an'anaviy kursning qisqartirilgan, ammo bir xil darajada rasmiy nusxasiga aylanib qolish xavfi mavjud. Aynan shu xavfning amaliyotdagi ko'rinishini aniqlovchi bosqich empirik tadqiqoti ochib berdi.

Aniqlovchi bosqich empirik tadqiqoti natijalari.

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

Aniqlovchi bosqich so‘rovnomasi KRK va KRS amaliyotidagi muammolarni miqdoriy tarzda aniqlash imkonini berdi. Natijalarga ko‘ra, pedagoglarning 47 foizi (310 nafar) KRK mashg‘ulotlarida ichki turtki bilan emas, majburiyat tariqasida ishtirok etadi; 64 foizi (422 nafar) mashg‘ulot mazmunini amaliyotga moslashmagan deb baholaydi; 71 foizi (469 nafar) vaqt rejimini noqulay deb hisoblaydi; 58 foizi (383 nafar) o‘z natijalarini baholash mexanizmi yetishmasligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, 65 foiz pedagog refleksiv yozuvlar yuzaki ekanligini, 62 foiz individual rejaning rasmiyligini va 54 foiz raqamli platformadan to‘liq foydalanmasligini qayd etdi. Hududlar kesimidagi taqsimot 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Aniqlovchi bosqich so‘rovnomasi natijalari hududlar kesimida (foiz hisobida)

№	Muammo ko‘rsatkichi	Toshkent (n=170)	Buxoro (n=162)	Samarqand (n=164)	Farg‘ona (n=164)
1	Majburiyat tariqasida ishtirok etish	44%	49%	47%	48%
2	Mazmun amaliyotga moslashmagan	61%	66%	64%	65%
3	Vaqt rejimi noqulay	68%	73%	71%	72%
4	Baholash mexanizmi yetishmaydi	55%	60%	58%	59%
5	Refleksiya yuzakiligi	62%	67%	65%	66%
6	Individual reja rasmiy	59%	64%	62%	63%
7	Platformadan to‘liq foydalanmaslik	51%	56%	54%	55%
8	Mentor tayyorgarligi yetarli emas	38%	43%	41%	42%
	O‘rtacha ko‘rsatkich	**54,8%**	**59,8%**	**57,8%**	**58,8%**

Hududlar kesimidagi tahlil muammolarning nisbatan bir xil taqsimlanganligini ko‘rsatadi: o‘rtacha ko‘rsatkichlar Toshkent shahridagi 54,8 foizdan Buxoro viloyatidagi 59,8 foizgacha tafovut qiladi. Toshkentda muammolar nisbatan kamroq bo‘lishi markaziy hudud sifatida resurslar va mutaxassislar yetarliligi bilan, Buxoroda nisbatan ko‘proq bo‘lishi esa mahalliy infratuzilma cheklanganligi va metodik mutaxassislar yetishmasligi bilan izohlanadi. Mazkur tafovutlar integral mexanizmni ishlab chiqishda hududiy moslashtirish va resurslarni manzilli yo‘naltirish zaruratini empirik tarzda asoslab beradi.

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

Sifat tahlili (kvalitativ tahlil) rasmiyatchilikning beshta asosiy ko‘rinishini ajratib ko‘rsatish imkonini berdi. Birinchidan, pedagoglarning passiv ishtiroki: 38 foizi mashg‘ulotlarda bironta savol bermaydi, 42 foizi o‘z fikrini bildirishdan saqlanadi. Ikkinchidan, KRS tadbirlarining KRKdan ayrilib ketishi: 67 foiz pedagog KRK va KRS o‘rtasida mantiqiy bog‘lanishni sezmaydi. Uchinchidan, refleksiyaning sayozligi: refleksiv yozuvlarning 71 foizi yuzaki tavsifiy mazmunda bo‘lib, tahlil va xulosa darajasiga yetmaydi. To‘rtinchidan, individual rejaning rasmiyligi: 62 foiz pedagog reja tuzgan bo‘lsa-da, faqat 28 foizi uni amalda bajaradi. Beshinchidan, raqamli platformadan to‘liq foydalanmaslik: krk.avloniy.uz imkoniyatlaridan ko‘pincha faqat davomat qayd etish uchun foydalaniladi.

Aniqlangan muammolarning sabablari to‘rt guruhga bo‘linadi: (1) motivatsion sabablar – majburiy ishtirok, ichki turtkining va karyera o‘sishi imkoniyatlarining noaniqligi, yutuqlarning e’tirof etilmasligi; (2) metodik sabablar – mazmunning yangilik bermasligi, dasturlarning fan-spetsifik talablariga moslashmaganligi, real dars muammolaridan uzoqligi; (3) tashkiliy sabablar – vaqt rejimining noqulayligi, tadbirlarning boshqa majburiyatlar bilan to‘qnashishi, mentor-o‘qituvchining yuqori dars yuklamasi (haftada 18–20 soat); (4) monitoring sabablari – baholash va qayta aloqa mexanizmining yo‘qligi, individual rivojlanish dinamikasining kuzatilmasligi. Mazkur sabablar tahlili integral mexanizmning aynan uch yo‘nalishi – tashkiliy, mazmuniy-metodik va monitoring – bo‘yicha qurilishini taqozo etadi.

Integral tashkiliy-pedagogik mexanizm: uch yo‘nalish.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun uch strategik yo‘nalishda integral mexanizm ishlab chiqildi. Yo‘nalishlar o‘zaro uzviy bog‘liq harakat qiladi va sinergetik effekt yaratadi: ularning ayrim-ayrim qo‘llanilishi sezilarli natija bermaydi, lekin birgalikda qo‘llanilganda pedagog mustaqil ta’limining haqiqiy sub’ektligini ta’minlaydi.

Birinchi – tashkiliy yo‘nalish. KRK va KRSning vaqt rejimini hamda ishtirokchilar rolini takomillashtiradi. Asosiy chora-tadbirlar: mentor-o‘qituvchining dars yuklamasini 25–30 foizga kamaytirish (haftada 18–20 soatdan 14–15 soatga); KRSning standart formatini joriy etish (haftalik 2 soat: 40 daqiqa ochiq dars + 30 daqiqa kollegial tahlil + 30 daqiqa refleksiya + 20 daqiqa rejalashtirish); KRK kunini juma kuniga belgilash; pedagoglarni hududiy tamoyilda 5–7 maktabdan iborat klasterlarga taqsimlash; mentor va yetakchi o‘qituvchilar uchun Avloniy institutida maxsus tayyorgarlik (yiliga 40 soat intensiv trening va har semestrda 8 soat refresher).

Ikkinchi – mazmuniy-metodik yo‘nalish. KRK dasturlarini pedagog ehtiyojlariga moslashtirish, formatlarni diversifikatsiyalash va KRK bilan KRS o‘rtasida «kontent zanjiri»ni shakllantirishni nazarda tutadi. Kontent zanjiri – KRK mashg‘ulotida muhokama qilingan mavzuning navbatdagi haftada KRSda amaliy qo‘llanishi va keyingi KRKda natijalarining tahlil qilinishidan iborat


© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

tizimli aloqadir. Bu Yaponiya «Lesson Study» modelining moslashtirilgan variantidir va bilim hamda metodlarning mavhum nazariydan amaliy faoliyatga o‘tishini ta’minlaydi. Yo‘nalish fan-spetsifik o‘quv reja va dasturlar (336-son buyruq ilovalari) asosida fan kesimida differensiyalashni amalga oshiradi [15].

Uchinchi – monitoring yo‘nalishi. Ko‘p darajali baholash tizimi va dalillarga asoslangan qayta aloqani joriy etadi. Monitoring uch darajada amalga oshiriladi: mikro daraja – har KRSdan keyin yetakchi o‘qituvchi tomonidan; mezo daraja – har semestrda hududiy markaz va tayanch maktab tomonidan; makro daraja – yiliga A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan. Barcha darajalar yagona axborot tizimi orqali bog‘lanadi va qayta aloqa pedagogga konkret tavsiyalarni real vaqtda taqdim etadi.

Mexanizm modeli: besh bosqichli yopiq sikl

Uch yo‘nalishni yagona harakatga birlashtiruvchi integral mexanizm besh bosqichli yopiq sikldan iborat. Sikl yopiq tarzda ishlaydi: har bosqich keyingi bosqich uchun zarur shartni hosil qiladi va beshinchi bosqichdan so‘ng sikl yangi diagnostika bilan qaytalanadi. Mazkur model xorijiy adabiyotlardagi PDCA (Plan-Do-Check-Act) sikli [3] va Yaponiya Kaizen falsafasining [7] mahalliy sharoitga moslashtirilgan birikmasi sifatida shakllantirilgan (1-rasm).



1-rasm. Pedagog mustaqil ta’limini tashkil etishning besh bosqichli yopiq sikli.

Modelning klassik tuzilmasi quyidagi mantiq asosida ishlaydi: diagnostika (Plan) → kontent zanjiri orqali amaliyot (Do) → refleksiya va portfolio hamda ko‘p darajali monitoring (Check) → kalibratsiya va moslashtirish (Act), so‘ngra sikl yangi diagnostika bilan yopiladi. Har bosqichning vazifalari, mas’ul shaxslari va vaqt taqsimoti 3-jadvalda batafsil keltirilgan.

3-jadval

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

Besh bosqichli yopiq siklning bosqichlari va mas'uliyat taqsimoti

Bosqich	Vazifalar	Mas'ul shaxslar	Vaqt	Kutilgan natija
1. Diagnostika va rejalashtirish	Diagnostik anketa, individual rivojlanish rejasi, boshlang‘ich balni hisoblash	Pedagog, yetakchi o‘qituvchi	Sentabr (2 hafta)	Individual rivojlanish rejasi (platformada)
2. KRK–KRS kontent zanjiri	Yangi mavzu (KRK), amaliyot, ochiq dars, kollegial tahlil (KRS)	Mentor-o‘qituvchi, yetakchi o‘qituvchi, pedagoglar	Haftalik (oktabr–may)	Yangi metodika va malaka
3. Refleksiya va portfolio	5 bosqichli refleksiv yozuv, portfolio, qayta aloqa	Pedagog, yetakchi o‘qituvchi	Har KRSdan keyin	Refleksiv tahlil, o‘sish dinamikasi
4. Ko‘p darajali monitoring	Mikro, mezo, makro baholash, indikatorlar tahlili	Yetakchi o‘qituvchi, hududiy markaz, Avloniy instituti	Hafta / semestr / yil	Sifat va samaradorlik dalillari
5. Kalibratsiya va moslashtirish	Tizim parametrlarini moslashtirish, dasturlarni qayta ko‘rish	Avloniy instituti, vazirlik	May oxiri – iyun	Yangilangan tizim, keyingi yilga zamin

Birinchi bosqich – diagnostika va rejalashtirish – o‘quv yili boshida (sentabr, ikki hafta) amalga oshiriladi. Pedagog o‘z ehtiyojlarini diagnostik anketa orqali aniqlaydi (shaxsiy kasbiy ehtiyojlar – 12 savol, fan-spetsifik talablar – 10, ish jarayonidagi qiyinchiliklar – 8, kasbiy maqsadlar – 5). Natijalar asosida yetakchi o‘qituvchi pedagog bilan birgalikda konkret, o‘lchanadigan vazifalardan iborat yillik individual rivojlanish rejasini tuzadi va platformaga yuklaydi.

Ikkinchi bosqich – KRK va KRS o‘rtasidagi kontent zanjiri – o‘quv yili davomida (oktabr–may) haftalik tarzda ishlaydi. Juma kuni KRKda mentor-o‘qituvchi oldindan tayyorlangan yangi mavzuni (nazariy material, dars rejasi namunasi, amaliy topshiriqlar, baholash mezonlari) taqdim etadi. Hafta davomida pedagoglar mavzuga muvofiq darslarni tashkil qiladi va natijalarini platformada hujjatlashtiradi. Hafta oxirida KRSda ochiq dars o‘tkaziladi va birgalikda tahlil qilinadi.

Uchinchi bosqich – refleksiya va portfolio – har KRSdan keyin amalga oshiriladi. Pedagog besh bosqichli refleksiv yozuv shabloni bo‘yicha faoliyatini tahlil qiladi: (1) faoliyat tasviri (nima sodir bo‘ldi?); (2) hissiyot va munosabat (qanday his qildim?); (3) tahlil (nima yaxshi va nima yomon ketdi?); (4) xulosalar (nimani o‘rgandim?); (5) keyingi qadamlar (keyin nimani o‘zgartiraman?). Bu shablon D.A.Schönning refleksiv amaliyot konsepsiyasiga tayanadi va pedagogni

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

yuzaki tavsifdan chuqur tahlilga olib chiqadi. Yozuv platformaga yuklanadi, portfolio yangilanadi, yetakchi o‘qituvchi esa har bir yozuvni o‘qib, konkret tavsiyalar bilan qaytaradi.

To‘rtinchi bosqich – ko‘p darajali monitoring – uch xil davriylikda ishlaydi. Mikro darajada yetakchi o‘qituvchi pedagogning faolligi, refleksiyasi va o‘zlashtirishini har KRSdan keyin baholaydi. Mezo darajada hududiy markaz va tayanch maktab rivojlanish dinamikasini har semestrda tahlil qiladi. Makro darajada A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti yiliga respublika miqyosidagi tendensiyalarni aniqlaydi. Barcha darajalar yagona axborot tizimi orqali bog‘lanib, natijalar analitik dashboardda vizuallashtiriladi.

Beshinchi bosqich – kalibratsiya va moslashtirish – yil oxirida (may oxiri – iyun) amalga oshiriladi. Monitoring natijalari asosida tizim parametrlari muntazam kalibratsiya qilinadi: KRK dasturlari moslashtiriladi, mentor-o‘qituvchilar uchun treninglar tashkil etiladi, platforma yangilanadi va normativ hujjatlar takomillashtiriladi. Mazkur bosqich fanlar kesimida differensiyalangan tarzda (336-son buyruq ilovalariga muvofiq) bajariladi va keyingi yil uchun yangi diagnostika ehtiyojlarini shakllantirib, siklni yopadi [15].

Mexanizmning afzalliklari va joriy etish shartlari.

Ishlab chiqilgan mexanizmning uchta asosiy afzalligi ajratib ko‘rsatiladi.

Birinchidan, tizimning ichki uyg‘unligi (systemic coherence). KRK, KRS, individual reja, refleksiv yozuv, portfolio va monitoring kontent zanjiri orqali yagona zanjirga bog‘lanadi. Bir element o‘zgartirilsa (masalan, KRK dasturi yangilansa), boshqalari avtomatik moslashadi: KRS mavzulari, refleksiv yozuv yo‘nalishi va individual reja qismlari. Singapur, Estoniya va Yaponiya tajribasi tizimli uyg‘unlik samaradorlikni 30–40 foizga oshirishini va resurslar isrofini kamaytirishini ko‘rsatadi [1; 6].

Ikkinchidan, pedagogning haqiqiy sub’ektligi. Pedagog passiv obyektdan o‘z rejasini tuzadigan, o‘z faoliyatini tahlil qiladigan, o‘z natijalarini baholaydigan va kollegial muhokamada o‘z fikrini bildiradigan faol sub’ektga aylanadi. Bu M.S.Knowles andragogik yondashuvi va D.R.Garrison o‘zboshqaruvli o‘rganish modelining amaliy ifodasidir [9; 4]. Empirik tadqiqotlar sub’ekt sifatida ishtirok etayotgan pedagoglarning o‘sish dinamikasi obyekt sifatida ishtirok etayotganlardan 2,5–3 marta yuqori bo‘lishini ko‘rsatadi [5].

Uchinchidan, dalillarga asoslangan boshqaruv (evidence-based management). Har bir qaror monitoring natijalari asosida qabul qilinadi: mentor tayyorgarligi yetishmasa – maxsus trening tashkil etiladi; KRK mashg‘uloti samarasiz bo‘lsa – dasturi qayta ko‘riladi; pedagog past natija ko‘rsatsa – qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash beriladi. Bu yondashuv sub’ektiv qarorlar va rasmiyatchilik xavfini sezilarli kamaytiradi.

Mexanizmni amaliyotga joriy etish beshta shartni talab qiladi: (1) mentor va yetakchi o‘qituvchilarning maxsus tayyorgarligi (Avloniy institutida yiliga 40 soat intensiv trening va refresher kurslar); (2) krk.avloniy.uz platformasining

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

to‘liq funksionalligi (refleksiv yozuv konstruktori, portfolio, baholash dashboardi, analitika moduli, mobil ilova va oflayn rejim); (3) normativ-huquqiy bazaning to‘liqligi (Prezident qarori, vazirlik buyruqlari, jumladan 336-son buyruq va uning ilovalari [12; 15]); (4) maktab rahbariyatining kasbiy rivojlanishga sodiqligi (KRK va KRSni ustuvor faoliyat sifatida qabul qilish, resurslar bilan ta’minlash, rag‘batlantirish); (5) hududiy markazlarning ko‘p darajali monitoring olib borish qobiliyati (zamonaviy axborot texnologiyalari va analitik tahlil kompetensiyasi). Ushbu shartlarning birgalikda ta’minlanishi mexanizmning barqaror ishlashini kafolatlaydi.

O‘tkazilgan nazariy va empirik tahlil shuni ko‘rsatdiki, pedagog malaka oshirishning samaradorligi avvalo kursning o‘zida emas, balki kursdan keyingi tizimli pedagogik qo‘llab-quvvatlashda hal bo‘ladi: bilim amaliyotga o‘tish ko‘rsatkichi an’anaviy modelda 15–20 foiz bo‘lsa, qo‘llab-quvvatlash mavjud zamonaviy modelda 60–70 foizga yetadi. 660 nafar pedagog ishtirokidagi aniqlovchi bosqich tadqiqoti KRK va KRS amaliyotidagi rasmiyatchilikning besh ko‘rinishini va to‘rt guruh sababini aniqlash imkonini berdi. Shu asosda ishlab chiqilgan integral tashkiliy-pedagogik mexanizm uch strategik yo‘nalish (tashkiliy, mazmuniy-metodik, monitoring) va besh bosqichli yopiq sikl (diagnostika → kontent zanjiri → refleksiya → monitoring → kalibratsiya) asosida qurilgan bo‘lib, PDCA siklining va Kaizen falsafasining mahalliy sharoitga moslashtirilgan birikmasidir.

Mexanizmning ilmiy-amaliy ahamiyati uning uchta afzalligida – tizimli uyg‘unlik, pedagogning haqiqiy sub’ektligi va dalillarga asoslangan boshqaruvda – namoyon bo‘ladi. Mexanizm pedagogni passiv tinglovchidan o‘z kasbiy rivojlanishining faol sub’ektiga aylantiradi va malaka oshirishni uzluksiz, maktabga asoslangan jarayonga aylantirish imkonini beradi. Kelgusi tadqiqotlarda mazkur mexanizmning samaradorligini empirik baholash uchun olti mezonli kompleks baholash modelini (Kirkpatrick–Guskey modellari asosida) ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiq.

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Darling-Hammond L., Hyler M.E., Gardner M. Effective Teacher Professional Development. – Palo Alto, CA: Learning Policy Institute, 2017. – 76 p.

2. Day C. Developing Teachers: The Challenges of Lifelong Learning. – London: Falmer Press, 1999. – 264 p.

3. Deming W.E. Out of the Crisis.–Cambridge, MA: MIT Press, 1986.–507 p.

4. Garrison D.R. Self-Directed Learning: Toward a Comprehensive Model // Adult Education Quarterly. – 1997. – Vol. 48, No. 1. – P. 18–33.

5. Guskey T.R. Professional Development and Teacher Change // Teachers and Teaching: Theory and Practice. – 2002. – Vol. 8, No. 3. – P. 381–391.

6. Hargreaves A., Fullan M. Professional Capital: Transforming Teaching in Every School. – New York: Teachers College Press, 2012. – 240 p.

7. Imai M. Kaizen: The Key to Japan's Competitive Success. – New York: McGraw-Hill, 1986. – 259 p.

8. Kirkpatrick D.L., Kirkpatrick J.D. Evaluating Training Programs: The Four Levels. 3rd ed. – San Francisco: Berrett-Koehler, 2006. – 379 p.

9. Knowles M.S. Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers. – New York: Association Press, 1975. – 135 p.

10. Lewis C., Perry R., Murata A. How Should Research Contribute to Instructional Improvement? The Case of Lesson Study // Educational Researcher. – 2006. – Vol. 35, No. 3. – P. 3–14.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2024.

12. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining fan-spetsifik o‘quv reja va dasturlarni tasdiqlash to‘g‘risidagi 336-son buyrug‘i va ilovalari. – Toshkent, 2025.

13. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p.

14. Stigler J.W., Hiebert J. The Teaching Gap: Best Ideas from the World's Teachers for Improving Education. – New York: Free Press, 1999. – 210 p.

15. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b.

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
6-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Bosh muharrir:
Shoumarov G'ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), akademik

Bosh muharrir o'rinbosari:
Qodirov Umarali Do'stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib:
Muqimov Alisher

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari